IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RIVOJLANISHI

Xolboyeva Marjona Xayrullayevna

Termiz davlat unversiteti

Geografiya talim yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Ochilova Gulasal Muzaffarovna

Termiz davlat unversiteti

Geografiya talim yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohalarining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, xususan, aholi turmush farovonligining asosi hisoblangan ta'lim tizimi va tibbiyot sohasidagi islohotlar tahlil qilinadi. So'nggi yillarda hududda maktabgacha, maktab va oliy ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi, nodavlat ta'limning o'rni hamda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada viloyatning o'ziga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur ijtimoiy xizmat ko'rsatingsh tarmoqlarini yanada takomillashtirish va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, xizmat ko'rsatish sohasi, ta'lim tizimi, tibbiyot, sog'liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilma, modernizatsiya, xizmatlar sifati.

Abstract: This article analyzes the modern development trends of the service sector in Surxondaryo region, focusing on reforms in the education system and healthcare sector, which are considered the core pillars of public well-being. Based on recent statistical data, the study highlights the expansion of preschool, school, and higher education networks, the growing role of private education, as well as the modernization of the healthcare system and improvements in medical service quality in the region. Furthermore, taking into account the unique socio-demographic characteristics of the region, the article provides scientific and practical proposals and recommendations aimed at further improving these social service sectors and attracting future investments.

Keywords: Surxondaryo region, service sector, education system, medicine, healthcare, social infrastructure, modernization, quality of services.

Aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan tarmoqlar ta'lim, sog'likni saqlash,madaniyat, san'at, jismoniy madaniyat, sport, turizm, sog'lomlashtirish, Ijtimoiy ta'minot, moliya -kredit va sug'urta muassasalari kiradi.

XXI-kelib Jahonda aholi sonining oshib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadal sur'atda rivojlanib borishi bilan xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bordi.Fan texnika taraqqiyotidagi ko'plab ijobiy o'zgarish (ixtirolar) larning amalga oshirilishi nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalari tarkibiga balki, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi**.**

Talim sohasining rivojlanishi: Viloyatda ta'lim xizmatlari sohalari tizimida maktabgacha ta'lim xizmatlari sohalarining o'rni katta. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni zamon talablari

asosida o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi 5-6 yilda respublikamizda maktabgacha ta‘lim muassasalarini rivojlantirish borasida bir qator davlat dasturlari ishlab chiqildi. Surxondaryo viloyatida 2024/2025-o‘quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni 995 tani tashkil etgan va 2020/2021-o‘quv yili boshiga nisbatan 61 taga, ya’ni 6,5 % ga oshgan. 2024/2025-o‘quv yili boshiga viloyatida jami 4 ta nodavlat umumta’lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2022/2023-o‘quv yiliga nisbatan ularning soni 1,3 barobarga ko‘paygan.

Faoliyat yuritayotgn umumta’lim tashkilotlar soni

	Umumta’lim tashkilotlari soni, jami	*shundan: nodavlat umumta’lim tashkilotlari*
Surxondaryo viloyati	955	4
Termiz sh	33	3
tumanlar:		-
Oltinsoy	71	-
Angor	49	-
Bandixon	44	-
Boysun	60	-
Muzrabot	59	-
Denov	114	1
Jarqo‘rg‘on	69	-
Qumqo‘rg‘on	88	-
Qiziriq	51	-
Sariosiyo	94	-
Termiz	33	-
Uzun	72	-
Sherobod	77	-
Sho‘rchi	77	-

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining “Surxanstat.uz” rasmiy veb sayti ma‘’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi ―Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida‖gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi qabul qilindi. Kontseptsiyaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) o‘quvchilarning ta‘lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish kuzda tutilgan. Viloyatda maktabgacha ta‘lim muassasalarining soniga ko‘ra Denov, SHo‘rchi, SHerobod tumanlari hamda Termiz shahrining ulushi yuqoridir. Mazkur shahar va tumanlarda maktabgacha ta‘lim muassasalarining 36,7 foizi joylashgan. Viloyatda 2022 yilda maktabgacha ta‘lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar soni 92680 nafarni tashkil etgan. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlar soni 7028 nafarni, har bir maktabgacha ta‘lim muassasalariga to‘g‘ri keladigan tarbiyalanuvchilar soni 156 nafarni, har bir maktabgacha ta‘lim muassasalariga to‘g‘ri keladigan pedagog xodimlar soni 11-nafarni tashkil etgan.

2024/2025-o‘quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining eng ko‘p soni Denov (114 ta), Sariosiyo (94 ta) va Qumqo‘rg‘on (88 ta) tumanlarida qayd etilgan

bo‘lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko‘rsatkichlar Bandixon tumani (44 ta), Termiz tumanida va Termiz shahrida (33 tadan) qayd etilgan. Nodavlat umumta’lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko‘p qismi Termiz shaharida (3 ta), eng kami esa Denov tumanida (1 ta) qayd etilgan.

Surxondaryo viloyatida 2020/2021 – 2024/2025-o‘quv yillarida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar sonining o‘sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o‘quvchilarning umumiy soni 55,6 ming kishiga, ya’ni 1,0 % ga ko‘paygan. Viloyatimizning barcha tumanlarida va shaharida o‘g‘il bolalar soni qiz bolalar sonidan o‘rtacha 3,0 % ga ortadi. O‘quvchilarning eng ko‘p qismi Denov (81,5 ming), Jarqo‘rg‘on (45,3 ming) va Sariosiyo (45,2 ming) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Termiz (20,0 ming) va Bandixon tumanlarida (17,3 ming) to‘g‘ri kelgan. O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasidagi eng sezilarli tafovut Termiz tumanida (o‘g‘il bolalar – 53,5 %, qiz bolalar – 46,5 %), Termiz shahrida (o‘g‘il bolalar – 52,3 %, qiz bolalar – 47,7 %), Sherobod tumanida (o‘g‘il bolalar – 51,5 %, qiz bolalar – 48,5 %) boshqa tumanlarda o‘g‘il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil. Viloyatda o‘rta maxsus ta‘lim muassasalaridan akademik litsey va kasb-hunar kollejlar va texnikumlar faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022/2023 o‘quv yilida viloyatda 4ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan. Akademik litseylar asosan Termiz shahri (2ta), Jarqo‘rg‘on (1ta), Qiziriq (1ta) tumanlarida joylashgan. Viloyatda 2016-2017-o‘quv yilida 5ta akademik litsey faoliyat ko‘rsatgan. So‘nggi yillarda akademik litseylar soni biroz o‘zgarib turgan. 2019-2020-o‘quv yilida 3ta, 2022/2023 o‘quv yilida 4 ta akademik litseylar faoliyat ko‘rsatgan. Viloyatning Sariosiyo tumanidagi akademik litseyi 2017-2018- o‘quv yilidan boshlab, Denov tumanidagi akademik litseyi 2019-2020 o‘quv yilida o‘z faoliyatlarini to‘xtatgan. 2022/2023 o‘quv yilida viloyat akademik litseylarida 1106 nafar o‘quvchilar tahsil olgan. Akademik litseylarda faoliyat ko‘rsatgan o‘qituvchilar soni 132 nafarni tashkil etgan. Viloyatdagi mavjud akademik litseylarda 2022/2023 o‘quv yilida 2010/2011o‘quv yiliga nisbatan talabalar soni 3804 nafarga, o‘qituvchilar soni 205 nafarga qisqargan.

Viloyatda kasb-hunar kollejlar soni so‘nggi yillarda kamayib borgan. 2012/2013 o‘quv yilida viloyatda kasb hunar kollejlar soni 116 tani tashkil etgan bo‘lsa, bo‘ ko‘rsatkich 2022/2023 o‘quv yilida 14tani tashkil etgan. Respublikamizda so‘nggi 6-7 yil davomida umumiy ta‘lim muassasalarining 11-yillik tizimga o‘tkazilishi hisobiga, kasb-hunar kollejlar soni kamayib brogan.

Sog’likni saqlash tiziming rivojlanishi: Shifoxona muassasasi – kechayu kunduz tibbiy yordam ko‘rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo‘ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi. 2024-yil yakuni bo‘yicha Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni 96 taga yetdi va 2023-yilga nisbatan 19 taga ko‘payib, 24,7 % ga o‘sishni tashkil etdi.

Shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o‘rinlari sonini tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining “Surxanstat.uz” rasmiy veb sayti

	Shifoxona muassasalari soni		Bemor o‘rinlari soni *(ming birlik)*	
	jami [1)]	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami [1)]	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Surxondaryo viloyati	**96**	**100,0**	**10,0**	**100,0**
shu jumladan shahar				
Termiz	31	32,2	2,9	29,0
tumanlar:				
Oltinsoy	2	2,1	0,4	4,0
Angor	2	2,1	0,3	3,0
Bandixon	2	2,1	0,2	2,0
Boysun	2	2,1	0,4	4,0
Muzrabot	1	1,0	0,3	3,0
Denov	19	19,7	1,3	13,0
Jarqo‘rg‘on	6	6,3	0,5	5,0
Qumqo‘rg‘on	2	2,1	0,4	4,0
Qiziriq	6	6,3	0,4	4,0
Sariosiyo	4	4,2	0,6	6,0
Termiz	11	11,5	1,1	11,0
Uzun	1	1,0	0,3	3,0
Sherobod	4	4,2	0,5	5,0
Sho‘rchi	3	3,1	0,4	4,0

ma''lumotlari asosida tuzilgan.

2024-yil yakuni bo‘yicha eng ko‘p shifoxona muassasalari Termiz shahrida (31 ta), Denov (19 ta) hamda Termiz tumanlarida (11 ta) joylashgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkichlar Muzrabot va Uzun (1 tadan), Oltinsoy, Angor, Bandixon, Boysun va Qumqo‘rg‘on (2 tadan) tumanlarida qayd etilgan. Shifoxona muassasalaridagi eng ko‘p bemor o‘rinlari Toshkent shahri (2,9 mingta), Denov (1,3 mingta) va Termiz (1,1 mingta) tumanlarida qayd etilgan bo‘lib, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkichlar Bandixon (0,2 mingta), Uzun (0,3 mingta) va Angor (0,3 mingta) tumanlarida kuzatilgan.

2024-yil yakuniga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo‘yicha shifokorlar soni 4,8 ming kishini tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 0,3 ming kishiga, ya’ni 5,2 % ga kamaydi. 2024-yil yakuniga qadar Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan shifokorlar umumiy sonidan ayollarning ulushi 32,8 % ni, erkaklarning ulushi esa 67,2 % ni tashkil etdi. 2023-yil ma’lumotlariga nisbatan ayol-shifokorlar soni 3,0 % ga kamaygan, erkak-shifokorlar soni esa 3,0 % ga oshdi. 2024-yil yakuni bo‘yicha Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo‘yicha shifokorlarning eng ko‘p soni Toshkent shahri (1,6 ming kishi), Denov (0,5 ming kishi) va Sariosiyo (0,3 ming kishi) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Eng past ko‘rsatkichlar esa Qiziriq va Bandixon (0,1 ming kishidan) hamda Muzrabot (0,2 ming kishi) tumanlarida kuzatilgan. Barcha mutaxassisliklar bo‘yicha shifokorlarning gender taqsimoti shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo viloyatida erkak-shifokorlarning ulushi ko‘proq bo‘lgan. Ularning eng ko‘p kismi Qiziriq (89,5 %), Bandixon (87,6 %) va Boysun (85,5 %) tumanida qayd etilgan. 2024-yil yakuniga ko‘ra, eng ko‘p o‘rta

tibbiyot xodimlari Termiz shahrida (5,7 ming kishi), Denov (2,2 ming kishi) hamda Jarqo‘rg‘on tumanlarida (1,6 ming kishi) qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkichlar Bandixon (0,5 ming kishi), Termiz (0,7 ming kishi) va Qiziriq (0,8 ming kishi) tumanlarida kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev.A .O’zbekiston geografiyasi.T:.Unversitet, 2014, 233 b.
2. H.M. Abdunazarov, M.H. Umarova, N.A. Esanov Surxondaryo viloyati geografiyasi “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” 2-qism O‘quv qo‘llanma. T:. Toshkent – 2024
3. Sh.B. Qurbonov, V.N. Fedorko O’zbekiston geografiyasi (II qism. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi)Darslik **.** T:. Toshkent – 2024 Yangi Chirchiq prints
4. O’zbekiston respublikasi Milliy statistika qo’mitasi Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi